



## FE'L MAYLLARI. TO'LIQSIZ FE'LLAR. FE'L ZAMONLARI VA ULARNING TURLARI. FE'LNING YASALISHI.

817-22 *guruh talabasi Abdumalikova Shahnozaning maqolasi.*

### Annotation

O'zbek tilida fe'l mayllari masalasi ancha keng o'rganilgan va bu haqida qator ishlar e'lon qilingan. Shunga qaramasdan bu sohada hali o'z ifodasini topmagan masalalar ham oz emas. Jumladan, boshqa davlatlarda yashayotgan o'zbeklar tilida fe'lning mayl turlari va ularning nomlanishi masalasida tilshunoslarning biror tadqiqot qilganligini kuzatilmaydi. Ushbu maqolada shu haqida ayrim masalalarga to'xtalib o'tamiz

**Kalit so'zlar:** fe'l, zamon, shaxs-son, mayl, kategoriylar, xabar mayli, shart mayli, buyruq- istak mayli.

### KIRISH

Turkologiyada fe'l turkumi bo'yicha juda ko'p ishlar qilingan. O'zbek tilshunosligining o'zida fe'lga xos barcha grammatik kategoriylar bo'yicha, shuningdek barcha funksional formalar bo'yicha dissertasiyalari yoqlangan. Ayrim kategoriylar bo'yicha, hatto, birdan ortiq nomzodlik dissertasiyalari yoqlangan. Ana shuning o'ziyoq o'zbek tilshunosligida fe'l turkumining qay darajada keng o'rganilganini yaqqol ko'rsatib turadi. Biroq shunga qaramay, fe'l turkumida hali to'la hal etilmagan, munozarali masalalar, mohiyati yetarli ochilmagan hodisalar anchagini bor.

Harakatning bajarilishga munosabatini ifodalaydigan shakllar fe'l mayllaridir. Xabar (aniqlik) mayli: bordi. Buyruq-istak mayli: bor. Shart mayli: borsa. Maqsad mayli: bormoqchi.

### Fe'llarning yasalishi

Fe'lllar morfologik va sintaktik usullar bilan yasaladi. Morfologik usul: so'z yasovchi qo'shimchalar qo'shish orqali fe'l yasalishi.

-la: gulla, o'yla; -a (-y): yasha, qoray; -r (-ar): oqar; -ik (-iq): yo'liq, hayiq; -ir (-ur): gapir; -ira (-ila): yaltira, gurilla.

Sintaktik usul bilan murakkab va juft fe'lllar yasaladi: xabar berdi, xursand bo'ldi; sotib oldi; bordi-keldi.

Murakkab fe'llarda asosiy ma'no ifodalovchi birinchi so'z – yetakchi fe'l, qo'shimcha ma'noli ikkinchi qism esa – ko'makchi fe'l deyiladi: gapirib tashladi.

Mustaqil holda ma'no bildirmaydigan edi, ekan, emish to'liqsiz fe'lllar tuslanadi: aytgan edim, aytgan eding, aytar ekansan.



Fe'llarda zamon shakllari va ularning taraqqiyoti Hozirgi turkiy tillarning ko'pchiligi bo'yicha Fe'lning mayl va zamon masalasi ma'lum darajada o'r ganilgan va bu sohada qator ishlar qilingan. Lekin bu masala keyingi vaqt larda ham turkologiyaning eng aktual va asosiy problemalaridan biri bo'lib qolmoqda. Turkiy tillarda Fe'lning mayl va zamon kategoriyalari masalasi bo'yicha 1962-yil Bokuda o'tkazilgan koordinatsion yig'ilish natijalari bu masalaning nihoyatda murakkab va aktual ekanligini, ayniqsa, uning tarixiy planda o'r ganishi muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi.

Hozirgi o'zbek tilida Fe'lning mayl va zamon kategoriyalari bo'yicha dissertatsiyalar himoya qilingan, monografiya va maqolalar e'lon qilingan. Bu haqida darslik va qo'llanmalarda ham ancha keng ma'lumotlar berilgan. Lekin bu sohada hali o'z ifodasini topmagan masalalar oz emas. Masalan, mayl va zamon turlari, bu kategoriyalarni ifodalovchi formalarning miqdori va chegarasi, bu formalardan har birining mayl va zamon sistemasidagi o'rni, bularning o'zaro munosabati kabi masalalar bo'yicha adabiyotlarda har xil fikr va mulohazalar bayon qilingan.

Jumladan, hozirgi o'zbek tilida Fe'lning nechta mayl turi borligi va bularning nomlanishi masalasida tilshunoslar o'rtasida birlik yo'q. To'g'ri, ko'pchilik ishlarda hozirgi o'zbek tilida Fe'lning uch mayl turi borligi qayd qilinadi:

- 1) aniqlik mayli;
- 2) buyruq-istik mayli (yoki buyruq mayli);
- 3) shart mayli.

Lekin buyruq, istak kabi ma'nolarni ifodalovchi mayl formalari bu ishlarning ayrimlarida —buyruq mayli, boshqalarida —buyruq-istik mayli nomi bilan ataladi. Ba'zi ishlarda esa quyidagi to'rt mayl turi ko'rsatiladi:

- 1) buyruq mayli;
- 2) aniqlik mayli;
- 3) shart mayli;
- 4) istak mayli.

Bu ishlarda buyruq-istik maylining I shaxs birlik va ko'plik formalari alohida mayl turi sifatida qaralib, bular —istik mayli nomi bilan ataladi, II va III shaxs formalari esa —buyruq mayli nomi bilan alohida gruppaga ajratiladi. T. Xo'jaevning Fe'l mayllari va zamonlari masalasiga bag'ishlangan maqolasida ham buyruq-istik mayli ikki mustaqil mayl turiga ajratilgan (buyruq mayli, istak mayli). Bundan tashqari, avtor aytsa ham (aytsa-da) tipidagi formalarni, shuningdek, aytishi kerak (lozim, zarur) tipidagi birikmalarni ham alohida mayl turlari sifatida qaraydi va bulardan birinchisini (aytsa ham, aytsa-da) —to'siqsizlik mayli, ikkinchisini esa (aytishi kerak) —vazifa mayli nomi bilan ataydi. Shunday qilib, T. Xo'jaev hozirgi o'zbek tilida quyidagi olti mayl turi bor, deb ko'rsatadi: 1) aniqlik mayli; 2) buyruq mayli; 3) istak mayli; 4) shart mayli; 5) to'siqsizlik mayli; 6) vazifa mayli.

A. Hojievning hozirgi o'zbek tilida fe'lning mayl turlari haqidagi maqolasida masalaga boshqacharoq qaraladi. Avtor, birinchidan, —aniqlik mayli deb termini shu mayl gruppasiga kiruvchi formalarning xarakteriga mos kelmasligi haqida gapirib, bu maylni —ijro mayli deb atash ma'qul ekanligini aytadi, ikkinchidan, -moqchi affiksi bilan yasalgan ishlar moqchi tipidagi formani alohida mayl turi sifatida qaraydi va uni —maqsad mayli deb ataydi, uchinchidan, odatda —o'tgan zamon davom Fe'l deb ataluvchi ishlar edi tipidagi analitik formasini omoforma hisoblab, bu forma rus tilidagi —soslagatel'noe nakloneniega mos keluvchi ma'nosi bo'yicha alohida mayl turini tashkil etadi, deb qaraydi va bu maylni —shartli mayli nomi bilan ataydi.

Hozirgi o'zbek tilida Fe'l zamonlari va bularni ifodalovchi formalarning miqdori va chegarasi, bu formalarning o'zaro munosabati, ayrim formalarning qaysi zamon yoki qaysi mayl gruppasiga oidligi kabi masalalar bo'yicha ham adabiyotlarda turli fikr va mulohazalar aytilgan va har xil qarashlar bor (bu xildagi masalalar haqida ish davomida o'rni bilan to'xtab o'tiladi).

O'zbek tili tarixini o'rganish ma'lum traditsiyaga ega. Arab o'zbek klassik adabiyotiga oid manbalar, xususan, Alisher Navoiy asarlari bo'yicha tuzilgan tarixiy lug'atlar va bu lug'atlarga ilova qilingan grammatik ocherklarini hisobga olmasak eski o'zbek tilini o'rganish asosan XIX asrning o'rtalaridan boshlangan, deb aytish mumkin. Lekin o'tgan asrda o'zbek tili tarixi bo'yicha bajarilgan ishlar ayrim asarlarni nashr etish va ularga lingvistik izohlar berish bilan chegaralangan. O'zbek tilining tarixiy grammatikasiga oid masalalar, xususan, Fe'l mayllari va zamonlarinnng tarixiy taraqqiyoti masalasi keyingi yillargacha monografik tekshirish obyekti bo'lgan emas. 1865-yilda N. I. Il'minskiyning —Boburnoma tilidagi -r, -g,,ay, -g,,u va boshqa ayrim Fe'l formalarining tahliliga bag'ishlangan ishi e'lon qilingan edi.<sup>6</sup> Lekin Ya. Shinkevichning —Qissasi Rabg'uziy tiliga bag'ishlangan asari e'lon qilingunga qadar o'zbek tilining tarixiy grammatikasi bo'yicha bu xildagi ishlar yuzaga kelmadi.

G. Vamberi, K. Brokkel'man va A. M. Shcherbakning grammatikalarida, shuningdek, ayrim yozma yodgorliklarning til xususiyatlarini tahlil qilishga bag'ishlangan ishlarda o'zbek tili taraqqiyotining ma'lum davrlarida yoki tekshirilayotgan yodgorlik tilida amalda bo'lgan mayl va zamon formalari haqida ham boshqa grammatik kategoriylar singari qisqa va umumiyy ma'lumotlar berilgan. Bu ishlarning xarakter va vazifasi ham shuni taqozo qiladi

2.

O'zbek tilshunosligida, shuningdek, boshqa turkiy tillarga oid adabiyotlarda zamon kategoriylarining mohiyatini tushunishda va bularni ta'riflash masalasida: Oliy O'zbekiston inqirozi grammatikasining o'zbek tilidagi tarjimasi yurtlar nashriyotchi sifatida yetishtirilgan qulqoq ikkala o'zbek tilida ham iste'mol qilingan bulgan pochta va vaqt haqiqatning rasmiylashtirilishi Adabiyotlarda ta'kidlanishicha, zamon

kategoriyasi harakat yoki holatning nutq momentiga munosabatini ko'rsatadi. Mayl va zamon kategoriyalari o'rtasidagi chegarani belgilash, bu kategoriyalarni ifodalovchi formalarni klassifikatsiya qilish kabi qator masallar bo'yicha tilshunoslardan o'rtaida birlik yo'q. Bu hol ba'zi formalarning mayl va zamon kategoriyalaridan qaysi biriga aloqadorligini aniqlash masalasida, hatto, aynan bir til doirasida har xilliklar kelib chiqishiga sabab bo'lgan. Tilshunoslarning bir gruppasi ba'zi formalarni u yoki bu belgisiga ko'ra mayl kategoriyasiga kirtsalar, boshqalari shu formalarni boshqa xususiyatlarga asoslanib, zamon formasi sifatida qaraydilar.

O'zbek tilshunosligida, shuningdek, boshqa turkiy tillarga oid adabiyotlarda Fe'lning mayl va zamon kategoriyalari bo'yicha bunday har-xil qarashlarning paydo bo'lishidagi sabablaridan biri bu kategoriyalar o'rtaida formal jihatdan qat'iy differentsiatsiya yo'qligidadir. Birinchidan, bir vaqtning o'zida mayl va zamon ma'nolarini ifodalash uchun ikkita affiks qator ishlatilmaydi. Ikkinchidan, bir forma, bir tomondan, mayl ma'nosini ifodalash uchun xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, ish-harakatning zamonga munosabatini ko'rsatishi mumkin. Turkiy tillarda Fe'l mayllari va zamonlari o'rtaida semantik hamda formal jihatdan qat'iy differentsiatsiya bo'lmasligining ma'lum tarixiy sabablari bor. Gap shundaki, turkiy tillarda Fe'l mayllari va zamonlari genetik jihatdan biri ikkinchisi bilan o'zaro bog'liq bo'lgan kategoriyalarni tashkil etadi, ya'ni bu kategoriyalar tarixan bir xil manba asosida rivojlangan, aniqrog'i, mayl formalari ham, zamon formalari ham sifatdosh formalari asosida shakllangan

Mayl kategoriyasi — harakatning voqelikka munosabatini so'zlovchi nuqtai nazaridan belgilovchi grammatik kategoriya. O'zbek tilida maylning quyidagi turlari bor: 1) buyruqistik mayli: ayt, aytgin, aytning kabi; 2) shart mayli. Bu mayl shakli sa affaksi yerdamida yasaladi: borsam, borsang, kursa kabi; 3) shartli mayl — bajarilishi shart ergash gapdan anglashilgan harakatning bajarilishiga bog'liq bo'lgan (shartlangan) harakatni bildiruvchi mayl. Bu mayl shakli (a)r edi, maye edi yerdamida yasaladi va bu shakldagi Fe'l bosh gapning kesimi bo'lib keladi: Vaqting bo'lsa, kinoga borar edi k. Imkoning bo'lsa, bunday qiynalib yurmas eding; 4) maqsad mayli. Bu mayl shakli moqchi affaksi yerdamida yasaladi va harakatni bajarishbajarmaslik maqsadini bildiradi: so'ramoqchiman, o'qimoqchiman, aytmoqchi emasman; 5) ijro mayli — harakatholatni uning bajarilishi (ijrosi) bilan kar uch zamondan birida ifodalaydigan mayl. Bu mayl turi zamon va shaxsson ko'rsatkichlari orqali shakllanadi: o'qidim, o'qiyapman, o'qiyan; ko'rganman, ko'rgansan, ko'rgan.

Zamon kategoriyasi — harakatning nutq paytiga munosabatini bildiruvchi grammatik kategoriya. Harakatning nutq paytiga munosabatiga ko'ra Fe'lning 3 zamon turi farqlanadi: o'tgan zamon — keldi, oldim; hozirgi zamon • — kelyapman, kelyapti; kelasi zamon — kelaman, olasan va boshqa

## MUHOKAMA VA NATIJALAR



O'zbek tilida fe'l mayllarining tarixi va taraqqiyoti masalasiga bag'ishlangan ishlarda o'zbek tili taraqqiyotining ma'lum davrlarida yoki tekshirilayotgan yodgorlik tilida qo'llangan mayl formalari haqida ham boshqa grammatik kategoriylar singari umumiylumotlar berilgan.

Bu ishlarning bazilarida davr yoki yodgorlik tilida fe'l mayllarining quyidagi uch turi ko'rsatiladi:

1) aniqlik mayli, buyruq- istak mayli; 3) shart mayli (E. Fozilov, U. Sanaqulov, J.Lapasov, H.Bektemirov, A.Matg'oziyev, F.Is'hoqov va boshqalar). Boshqalarida esa buyruq-istak mayli formalari ikki mustaqil mayl turi sifatida qaraladi va fe'l mayllari quyidagi to'rtta turga ajratiladi: 1) aniqlik mayli; 2) buyruq mayli; 3)istak mayli; 4) shart mayli (A.N.Kononov, S.N.Ivanov, G.F.Blagova, A.Rustamov, M.Turobova, U.Mirzakarimova va boshqalar). Demak, eski o'zbek tili bo'yicha, agar buyruq-istak maylining ikki mayl turiga ajratilishi hisobga olinmasa, tadqnqotchilar o'rtaida ziddiyat yo'q.

Hozirgi o'zbek tilida fe'llar ikki usul bilan hosil bo'ladi

Affiksasiya usuli bilan

Kompozisiya usuli bilan

Affiksasiya usuli bilan fe'llarning yasalishi.

Bu usulda turli so'z asoslaridan maxsus fe'l yasovchi affikslar (qo'shimchalar) yordamida fe'llar hosil qilinadi. Hozirgi o'zbek tilida fe'l yasashda quyidagi affikslar qo'llanadi

-la affiksi. Bu qo'shimcha eng faol fe'l yasovchi bo'lib, barcha so'z turkumlaridan fe'l yasaydi: ishla, gula; tozala, yangila; sizla, tezla, sekinla; tufla, dodla; gumburla, shitirla kabi.

-a affiksi. Bu affiks ot, sifat, taqlid so'zlardan fe'l yasashda ishtirok etadi: o'yna, sana; yasha, qiyna, bo'sha, shildira kabi.

-(a)r affiksi. Bu affiks sifatdan fe'l hosil qiladi: ko'kar, eskir, buzar (moq) kabi.

-lan affiksi. Bu qo'shma affiks (la-n) ot, sifat, sondan fe'l yasaydi: zavqlan, otlan, g'azablan, shodlan, ikkilan (-di) kabi.

-(a)y affiksi. Bu qo'shimcha ot, sifat, ravishdan fe'l yasaydi: kuchay, qoray, sarg'ay, ulg'ay, ko'pay, kamay, kabi.

-sira affiksi. Bu yasovchi ot, sifat, olmosh asoslaridan fe'l hosil qiladi: uyqusira, gumonsira, yotsira; sizsira, sensira kabi

-lash affiks. Bu qo'shma affiks (la-sh) ot, son, undov so'zdan fe'l yasaydi: ko'maklash, yordamlash, gaplash, salomlash, xayrlash kabi.

-n affiksi. Bu affiks ot va sifatdan fe'l yasaydi: changi(t), boyi(moq), tinchi(di) kabi.

-ira, -illa affikslari. Bu affikslar yordamida taqlid so'zlardan fe'llar hosil qilinadi: yarqira, yaltira; miltilla, taqilla, qizilla, vishilla kabi.

-ir(-ur) affiksi. Ot va undovlardan fe'l yasaladi: gapir, tupur.



-ik, -iq affiksi. Bu qo'shimcha yordamida ot, son, ravish, sifatdan fe'l yasaladi: yo'liq, birik, kechik, zo'riq kabi.

### Kompozisiya usuli bilan fe'llarning yasalishi

Bu usulga ko'ra ikki (ba'zan undan ortiq) so'z asosi birikib, qo'shma fe'llar hosil bo'ladi. Masalan: Mahmudho'ja Behbudiy Shahrisabzda qo'lga olinadi, so'ngra Qarshi shahriga keltirilib, Qarshi begi Tog'aybek tomonidan yovuzlarcha qatl etiladi. Bu misoldagi qo'lga olinadi, qatl etiladi kompozisiya usuli bilan yasalgan qo'shma fe'llardir.

Qismlarining qaysi so'z turkumidan tashkil topishiga ko'ra qo'shimcha fe'llar 2 turga bo'linadi

«ot-fe'l» qolipidagi qo'shma fe'llar: hikoya qilmoq, e'lon qilmoq, ifoda etmoq, qabul qilmoq, xursand bo'lmoq, hafa qilmoq kabi;

«fe'l-fe'l» qolipidagi qo'shma fe'llar: olib kelmoq, olib bormoq, haydab yubormoq, borib kelmoq kabi.

Fe'lning modal ma'no ifodalovchi formalari.

O'zbek tilida fe'lning turli modal ma'nolarini ifodalash uchun xizmat qiladigan formalari ham mavjud. Bunday formalar modal formalar bo'lib, ular ikki xil ko'rinishda bo'ladi

1) sintetik formalar

2) analitik formalar

Fe'lning modal ma'nolar sintetik formalar orqali ifodalanganda, ish-harakatning davomliligi, takroriyligi, kuchsizligi kabi qo'shimcha ma'nolar anglashiladi. Bunday formalar fe'lga quyidagi affikslarni qo'shish bilan yasaladi:

1)-la: ishqa-la, quv-la, sava-la; 2) -g'il(-kila, -qila); ez-g'il, turt-kila, tort-qila; 3) -(i)msira, -(i)nqira; yi-la-msira, kul-imsira; oqar-inqira kabi.

Analitik formalar tarkibidagi ikkinchi qism-ko'makchi fe'llar vaqtincha o'z mustaqil ma'nosini yo'qotib yetakchi fe'l anglatgan ma'noga qo'shimcha ma'no qo'shadi.

Masalan: yoza boshladi, o'qiy boshladi fe'llari tarkibidagi yoza, o'qiy yetakchi fe'llar, boshladi esa ko'makchi fe'l bo'lib, harakatning boshlanganlik ma'nosini; yoza tur, yozib tur fe'llari tarkibidagi tur ko'makchi fe'l davomiylik, tugallanganlik, takroriylik ma'nolarini; yozib ko'r, aytib boq fe'llari tarkibidagi ko'r, boq ko'makchi fe'llari harakatning bajarilish imkoniyati ma'nosini ifodalaydi.

### XULOSA

Yuqorida qayd etganimizdek, fe'l so'z turkumida so'zlavchining ish-harakatga munosabatining ifodalanishi fe'l mayli deyiladi. Bu hol buyruq-istik maylida yaqqol seziladi. Afg'on o'zbeklari ta'lim dargohlarida buyruq-istik mayli ish-harakat bajaruvchisining hohishi bilan bog'liq holdagi harakatga undash, shu harakatga da'vat etishni ifodalaydi va quyidagi vositalar orqali yuzaga chiqadi: -gin, -sin, -aylik, -ing. (boray), (borgin), (borsin), (boraylik), (boring(izlar)) kabi. Ifodalovchilar birlik va





ko'plikda, shaxs va sonda farqlanadi. Buyruq-istak maylida sof buyruq, da'vat, iltimos, istak ma'nolari aks etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Bo'ronov J., Hoshimov O', Ismatullayev X. Ingliz tili grammatikasi.-T., 1974.
2. Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. - T., 1992.
3. M.G'apporov, R.Qosimova "Ingliz tili grammatikasi", Toshkent, "Turon-Iqbol". 2010
4. Rayevska N. Modern English Grammar. - Kiev: Kiev State University Publishing House, part I, 1967.

**References**

1. Bo'ronov J., Hoshimov O', Ismatullayev X. Ingliz tili grammatikasi.-T., 1974.
2. Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. - T., 1992.
3. M.G'apporov, R.Qosimova "Ingliz tili grammatikasi", Toshkent, "Turon-Iqbol". 2010
4. Rayevska N. Modern English Grammar. - Kiev: Kiev State University Publishing House, part I, 1967.

